O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti

Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrasi

**Himoyaga ruxsat etildi**

**Kafedra mudiri ________________i.f.n., dotsent v.b. S.U.Tojieva**

**«_____»_____________________________2012 yil**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

## Mavzu: "INNOVATSION MENEJMENTNING MOHIYATI VA UNI O`QITISHNING TEXNOLOGIK MODULINI YARATISH"

**Bajardi:** 5140900 – "Kasbiy ta`lim" (ijtimoiy – iqtisodiy soha) yo`lanishi kunduzgi bo`lim 4 kurs "D" guruhi talabasi Shomurodova Mehrinoz

**Ilmiy rahbar,i.f.d., prof.** **B.N. Navro`z-Zoda**

**Himoya sanasi** **D.A.K.ning bahosi**

**«____»____________2012 yil** _____________________

**D.A.K.ning xulosasi**

___________________________________________________________

___________________________________________________________

___________________________________________________________

**Buxoro - 2012**

**O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta**
**Maxsus Ta`lim Vazirligi**

**Buxoro Davlat universiteti**

**Ijtimoiy-iqtisodiy fakul'teti**

**Iqtisodiy ta`lim va turizm kafedrasi**

**Mutaxassialik: 5140900 – "Kasbiy ta`lim" (ijtimoiy – iqtisodiy soha) yo`lanishi**

**"Tasdiqlayman"**

**Kafedra mudiri ____________**

**«____»___________2011 й.**

**Shomurodova Mehrinozning bitiruv malakaviy ishi**

***T O P SH I R I Q***

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusu: "Innovatsion menejmentning mohiyati va uni o`qitishning texnologik modulini yaratish"**

**1.Universitet bo`yicha buyruq bilan tasdiqlangan__________________________**

**2.Tugatilgan ishning talaba tomonidan topshirish muddati________________**

**3.Tushuntirish xatinig tarkibi__________________________**

**4.Bitiruv malakaviy ishiga tegishli savollar ro`yxati:---------------------------------**

**-------------------------------------------------------------------------------------------**

**5.Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatkichi bilan)---------**

---

**6.Ilmiy maslahatchilar: M.Narziyev**

**7.Ilmiy rahbar: B.N. Navro`z-Zoda**

**8.Vazifani topshirish sanasi____________________________________________**

**9. Vazifa ijroga qabul qilindi__________________________________________**

**Talaba imzosi________________________**

**Kafedra mudiri imzosi________________**

Eslatma: Bu vazifa tugallangan ishgailova

## MUNDARIJA

Kirish.........................................................................................................4

I.BOB. Innovatsion menejmentning mohiyati va innovatsiyalarning amaliy ko`rinishlari.........................................................................................................7

1.1. Innovatsion menejment fanining asosiy tushunchalari va atamalari.........................................................................................................7

1.2.Innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi asoslari.........................................................................................................17

1.3. Buxoro davlat universitetini innovatsion faoliyatining tahlili.......... ..................29

1.4. Buxoro Davlat universitetida yaratilgan innovatsiyalarning tavfsiloti..... ...........38

I I. BOB. "Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusini o`qitish texnoligiyalari.........................................................................................................49

2.1. "Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusini o`qitishning texnoligik modeli.........................................................................................................49

2.2. "Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusining ko`rgazmali elektron taqdimoti (Power Point Presentaion)..........................................................................58

Xulosa.........................................................................................................78

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati..........................................................................81

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 18-yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlaydiki: "...Xozirgi keskin raqobat sharoitida innovastion texnologiyalar va ilm-fanni ... yanada rivojlantirish uchun zarur shart sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.Bugun zamonning o'zi ushbu masalani siyosatimizni eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda".

O'zbekiston Respublikasi iqtisodi tobora bozor munosabatlariga kirib borayotgan sharoitda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yangiliklarini kiritish strategiyasini tuzib biluvchi, loyixalarni ishlab chiquvchi va ularni taxlil qilishni biluvchi mutaxassislarni tayyorlash muxim ahamiyatga ega. Shuning uchun menedjment yo'nalishi bo'yicha o'qiyotgan bakalavr va magistrlar uchun «Innovastion menedjment» fani asosiy mutaxassislik fanlardan biri hisoblanadi Firma va korxonalar tashqi muxitning doimo o'zgarib turishi innovastion jarayonni amalga oshirish orqali tartibga solish zaruriyatini tug`diradi.

Zamonaviy innovastion jarayonlar o'ta murakkabdir va ularning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilishda mutaxassislar zarur. Innovastion menedjerlar - yangiliklarning turli tashkiliy–iqtisodiy tomonlari bilan shug`ullanuvchi va o'z faoliyati orqali korxonada innovastion jarayonlarni tezlashtirish va kengaytirishdir. Innovastion menejment fanini o'qitishdan maqsad korxonalarning bozordagi mavqeini mustaxkamlash maqsadida innovastion loyixalarni ishlab chiqish, taxlil qilish va joriy etish borasidagi talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini oshirishdir.

Innovastion menejment fanidanida moddiy, nomoddiy, tashkiliy xarakterli innovastiyalar bilan bogliq bo'lgan muammolar; tadqiqot, loyihalarni boshqarish xususiyatlari. Yangi texnika va texnologiyalarni yaratish va joriy qilishning muammolari; ilmiy texnika maxsulotga talabni tahlil qilish uslubi; texnik, ekologik, ijtimoiy, tijorat, institutstional, ekologik, moliyaviy va iqtisodiy tahlilni o'tkazish, loyixalarni tuzishning bosqichlari kabi savollar o'z aksini topgan.

Ushbu fan bevosita quyidagi fanlar bilan bevosita bogliqdir: strategik menedjment ishlab chiqarish menedjmenti, tarmoq texnologiyasi, oziq-ovqat sanoati mashinalari va dastgoxlari, ilgor texnologiya asoslari, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish va boshqalar.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida innovastion menejmentning mohiyati, va mazkur mavzuni o'qitishning pedagogik texnologiyasini tuzishdan iborat. Qo'yilgan maqsadga erishish quyidagi **vazifalar** echimi bilan bog`liq:

- Innovatsion menejment fanining asosiy tushunchalari va atamalari mohiyati yoritish;
- Innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi asoslari haqida xarakteristika berish;
- Buxoro Davlat universitetini innovatsion faoliyatining tahlilini o`tkazosh;
- Buxoro Davlat universitetida yaratilgan innovatsiyalarning tavfsilotini berish;
- "Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusini o`qitishning texnoligik modeli yuaratish;
- **"**Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusining ko`rgazmali elektron taqdimoti (Rower Point Presentaion) kompter dasturi asosida tuzish;

**Tadqiqot predmeti** – Innovatsion menejmentning mohiyati.

**Tadqiqot ob'ekti** bo'lib, mamlakatni modernizastiyalash sharoitida innovatsion menejmentning mohiyatini o'qtishning pedagogik texnologiyasi hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishi** kirish, ikki bob, xulosa va foydanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslanadi; uning yoritilish darajasi ochib beriladi, izlanishning maqsad va vazifalari shakllantiriladi, olingan natijalarning ahamiyati aniqlab olinadi; asosiy xulosalarining realizastiyasi bo'yicha axborotlar keltiriladi.

Birinchi bob "**Innovatsion menejmentning mohiyati va innovatsiyalarning amaliy ko`rinishlari"**ning asosiy vazifasi bo'lib, Innovatsion menejment fanining

asosiy tushunchalari va atamalari mohiyatini yoritish; innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi asoslari haqida xarakteristika berish; Buxoro davlat universitetini innovatsion faoliyatini tahlillash; Buxoro Davlat universitetida yaratilgan innovatsiyalarnini t izohlashga bag`ishlangan.

Ikkinchi bob **"Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusini o`qitish texnoligiyalari"** deb nomlanib, unda "Innovatsion menejmentning mohiyati" mavzusini o`qitishning texnoligik modelinig tuzilishi, hamda mazkur mavzuning ko'rgazmali elektron taqdimoti (Rower Point Presentaion) yoritilgan.

**Xulosa** qismida turizmni rivojlantirishning innovastion yo'nalishlari va uni o'qitish bilan bog`liq asosiy xulosa va tavsiyalarlar shakllantirilgan.

# I.BOB. INNOVATSION MENEJMENTNING MOHIYATI VA INNOVATSIYALARNING AMALIY KO`RINISHLARI

## 1.1.INNOVATSION MENEJMENT FANINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA ATAMALARI

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tom ma'nodagi islohot va o'zgarishlar shu jumladan ilmiy texnik siyosat kabi muhim faoliyat sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Fan va texnika yutuqlaridan samarali foydalanish masalalari bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi. Raqobat muhiti va bozor sharoitlarida faoliyat olib borayotgan ko'pchilik korxonalar uchun aynan Innovatsion faoliyat hamda uning natijalari muvaffaqiyat va samaradorlikning bosh mezoni hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy sharoitda bozor munosabatlari ishtirokchilari, ayniqsa, ishlab chiqaruvchilar o'zlarining joriy va istiqboldagi raqobatbardoshligini ta'minlash uchun mustaqil hamda maqsadga muvofiq tarzda ilmiy-texnik siyosat va Innovatsion faoliyatni olib borishlari davrning asosiy talabi hisoblanadi.

Innovatsion faoliyat o'ziga xos murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, korxonaning tadqiqotlar, ishlab chiqarish hamda sotuv munosabatlari majmuini qamrab oladi. Uning samaradorligini oshirishda asosiy o'rin boshqaruvga tegishlidir.

Innovatsion menejment - bu innovastion jarayonlarni, innovatsion faoliyatni, bu faoliyat bilan band bo'lgan tashkiliy struktura va uning personalini boshқarish tamoyillari, uslublari va formalari to'plamidir.Uniga qo`yidagi faoliyatlar taaluqlidir:

- maqsadni ko'yish va strategiyani tanlash;
- ssikl bosqichlari: - rejalashtirish;
- sharoitlarni aniqlash va tashkil qilish;
- ijro etish;
- rahbarlik.

Innovatsion menejment o'zida turli funkstiyalar (marketing, rejalashtirish, tashkil etish, nazorat) birikmasini namoyon etib, ularning har biri o'ziga xos va turli-tuman

aniq tadbirlarni amalga oshirishni talab etuvchi korxona alohida bo’linmalari o’rtasidagi o’ziga xos va turli-tuman o’zaro aloqa masalalarini echish hamda




**1.1-Rasm. Innovastion menejment sxemasi**

korxonaning tashqi muhit o’zgarishlariga mos samarali faoliyat olib borishini ta’minlashga yo’naltirilgandir. Boshqaruv sohasi nafaqat ishlab chiqarish, balki ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, sotuv, moliya, kommunikastiyalar, ya’ni korxona faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi.

Innovatsion menejment kursining bosh maqsadi bozor munosabatlari sharoitida ishlay oladigan hamda korxona ilmiy texnik siyosatini samarali tashkil etishga qodir malakali boshqaruvchilar va mutaxassislarni tayyorlash, ya’ni talabalarda Innovatsion faoliyat borasida zamonaviy fikrni shakllantira oladigan, xo’jalik yuritish va boshqaruvda yangicha usullarni qo’llay oladigan, shuningdek, innovastiya sohasida rahbarlik san’ati sirlarini o’rgana oladigan darajada nazariy va amaliy bilimlar berishdir. Fan iqtisodiy fanlarning alohida bo’ғini bo’lib, iqtisodiy, ijtimoiy ilmiy bilimlarning mavjud yutuqlaridan Innovatsion faoliyatni boshqarishda maqsadga muvofiq foydalanish orqali korxona samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish, yangi ғoyalarni amaliyatga tadbiq etish va nihoyat, ular asosida mamlakatimizda iqtisodiy o’sishni ta’minlash va xalq farovonligini oshirishni ko’zlaydi. Fanning predmeti  Innovatsion faoliyat hamda uni boshqaruvchi tizim o’rtasidagi o’zaro munosabatlardir.

Innovatsion menejment fanining asosiy vazifasi korxona Innovatsion faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish, shuning negizida bozorni zarur yuqori sifatli xalq iste'moli mahsulotlari bilan boyitish, jahon bozoriga chiqishga keng yo'l ochish va o'z mahsulotlarini xorijiy davlatlarda raqobatbardosh etib tayyorlash, uni valyutaga sotish va bu bilan respublika iqtisodiyotini boshqarishni xalqaro andozalarga olib chiqadigan darajadagi kasbiy mahoratga ega mutaxassislar etishib chiqishining ilmiy negizini ta'minlashdir.

Innovatsion menejment fanining asosiy tushunchalari va atamalari qo'yidagilardan iborat (1.1.rasm):

"***Novastiya*** – bu yangi echimlarga ega bo'lgan yoki mavjud echimlardan jiddiy farq qiladigan ilmiy bilim".

"***Yangilik*** – bu fundamental va amaliy tadqiqotlar, ishlanmalar yoki biror sohani samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba ishlarni rasmiylashtirilgan natijasi".

"***Yangilik kiritish*** - yangi texnikani va texnologiyani, tashkillashtirishni va boshqarishni yaxshilangan usullarini o'zlashtirish, yangilikni ishlatish jarayoni".

"***Innovastiya*** - bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoxud yangi yoki amaliy faoliyatida ishlatiladigan takomillashtirilgan texnologik jarayoni ko'rinishida amalga oshirilgan ijodiy faoliyatni yakuniy natijasi". Innovatsiya lotincha "innovatio" so`zidan olingan bo`lib, "in" – ichida, ichkarida; "novatio" – yangilash, o`zgartirish ma`nosini bildiradi.Yani, "innovatsiya" – yangiliklarni kiritish degani. "Innovatsiya" degani tadbirkorlikking barcha sohalarida doyimiy yangilash jarayoni tushuniladi. Innovatsiya yangiliklarni ishlab chiqarishga kiritishni ham bildiradi.Innovatsiya – bu Ijtimoiy-madaniy o`zgartirishlar uchun zamina yaratadigan yangi g`oyalar, texnoligiyalar va say`-harakatlarning yangi modelini shaklantirish mexanizmidir.

"***Innovatsion faoliyat*** – innovastiyalarni amalga oshirilishiga yo'naltirilgan yoki shu maqsad bilan mulohaza qilingan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat xatti-xarakatlar".

“***Innovatsion loyiha*** – yangi mahsulot yaratish ғoyasini tekshirish va kam-ko’stini to’ldirish va uni sinov to’plarini sotilishiga ko’ra bozorga loyiklik prognozini yaratish davomida qo’yilgan vazifalarni belgilangan muddat ichida o’rnatilgan byudjet doirasida amalga oshirilishiga yo’naltirilgan o’zaro boғlangan tadbirlar majmui.




**1.2-Rasm.Innovatsion menejment fanining atamalari**

Innovatsion loyihani maqsadi keyingi biznes rejalashtirishning texnik, texnologik va tijorat ko’rsatgichlarini asoslanganligini tasdiqlashdir, yan’i ishlab chiqilgan mahsulotni seriyalab ishlab chiqarish, sotish, va sotilgandan keyin xizmat ko’rsatish biznes-rejasini asoslashdir”.

“***Innovatsion jarayon*** – yangilik ғoyadan aniq yakuniy mahsulotga, texnologiyaga yoki xizmatga aylanish va xo’jalik amaliyotida tarkalish voqealar (xarakatlar) ketma-ketlik tizmasidir”.

Innovatsion menejment fanining ob’ekti sifatida **innovastiyalar** xizmat qiladi. Innovastiya atamasi inglizcha innovation (yangilik kiritish, yangilik yaratish, novatorlik) so’zidan olingan bo’lib, novastiyalarga investistiyalar sifatida talqin qilinadi.

Novastiya atamasi esa (lotincha novation-o’zgarish, yangilanish) ilgari mavjud bo’lmagan turli xil yangilikni bildiradi.

Innovastiya yangi texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko’rsatish va boshqaruvni tashkil etishning yangi shakllariga kapital qo’yilmalar orqali erishilgan moddiylashgan natijani namoyon etadi.

Har qanday yangi ғoya, hatto batafsil ta’riflangan va taqdim etilgan bo’lsada, masalan sxemalarda va chizmalarda, agar u amaliyotda ishlatiladigan mahsulotlarda, xizmatlarda yoki jarayonlarda amalga oshirilmagan bo’lsa – bu hali innovastiya emas.

Innovastiya – bu novastiyalarni yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar turlarini ishlab chiqarishda, iqtisodiy, mamuriy va boshqa xususiyatlarga ega bo’lgan tashkiliy-texnik, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqaruv echimlari ko’rinishida daromadli foydalanishdir.

Innovastiyani asosiy xislatlari 2-rasmda ko`rsatilgan.

– ilmiy-texnik yangiligi;

– amaliyotda (ishlab chiqarishda) tatbiq etilishi;

– tijorat amaliyotiga oshirilmoғligi.

Innovastiyalar qo’llash xususiyatlariga ko’ra ikkita guruxga ajratiladi:

- Yangi mahsulotlarni, buyumlarni, moddalarni, yarimfabrikatlarni, butlovchi qisimlarni qo’llashni jiddiy yangi yoki mukammallashtirilgan mahsulotlarni yaratishni qamrab olgan mahsulot ko’rinishidagi innovastiyalar.

- Ishlab chiqarishni tashkil qilish yangi usullarni, yangi jarayonlarni, yangi texnologiyalarni va ular bilan boғlangan yangi jixozlar va asbob-uskunalarni qamrab olgan jarayon ko'rinishidagi innovastiyalar.




**1.3-Rasm. Innovastiyani asosiy xislatlari**

Innovastiyalarni quyidagi turlarini ajratishadi:

1. Qat'iyligiga (yangiligiga) ko'ra:

- yirik ixtirolarni amalga oshiradigan va texnikani yangi bo'ғinlarini va rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirilishga asos bo'ladigan bazis innovastiyalar;
- odatda mayda va o'rta ixtirolarni amalga oshiradigan va ilmiy-texnik rivojlanish davrni tarqalish va barqaror bosqichlarida ustunlik qiladigan yaxshilaydigan innovastiyalar;
- eskirgan texnika va texnologiya bo'ғinlarini qisman yaxshilanishiga qaratilgan soxta innovastiyalar.

2. Qo’llanish xususiyatlariga ko’ra:

- yangi mahsulotlarni ishlab chikarishga va ishlatishga yo’naltirilgan mahsulot innovastiyalari;
- yangi texnologiyani yaratishga va tatbiq qilishga qaratilgan texnologik innovastiyalar;
- yangi tuzilmalarni qurish va harakatlantirishga moslangan ijtimoiy innovastiyalar;
- bir necha o’zgarishlarni ifodalaydigan kompleks innovastiyalar;
- yangi bozorlarda mahsulotlarga, xizmatlarga bo’lgan ehtiyojlarni qondiradigan bozor innovastiyalari.

3. Kelib chiqish sababi va manbasi bo’yicha:

- fan va texnika rivojlanishidan kelib chikkan innovastiyalar;
- ishlab chiqarishning ehtiyojlarlaridan kelib chikkan innovastiyalar;
- bozor ehtiyojlarlaridan kelib chikkan innovastiyalar.

4. Qayta ishlab chiqarish jarayonidagi axamiyatiga ko’ra:

- iste’mol innovastiyalar;
- investistion innovastiyalar.

5. Innovastiyani masshtabi bo’yicha:

- murakkab (sintetik) innovastiyalar;
- sodda innovastiyalar.

Innovastiyalar ular bilan foydalanadigan odamlarni extiyojlariga, xohshlariga, va odatlariga muvofiq bo’lishi lozim. Innovastiya aniq maqsadga yo’naltirilgan va sodda bo’lishi lozim.

Iste’molchini qiziqtirish uchun innovastiya bilimdan raqobatdosh mahsulotni ishlab chiqaradigan texnologiyaga aylanishi lozim. Samarali innovastiya cheklangan bozorning o’z  qismida etakchilikka yo’naltirilgan bo’lishi lozim, aks xolda raqobatchilar sizdan o’zib ketishlari mumkin.

Innovastiya tushunchasi  bilan ixtiro va kashfiyot tushunchalari uzviy boғliq hisoblanadi. Ixtiro deganda inson tomonidan yaratilgan yangi qurilmalar, mexanizmlar, asbob-uskunalar va boshqa moslamalar tushuniladi. Ixtiro  so'zi arabchadan o'ylab topish, ijod qilish ma'nosini bildirib, keng ma'noda fan va texnikaning mavjud darajasini ko'tarishga yordam beradigan va iqtisodiy jihatdan o'zgacha hal qilingan yangilikdir. Tor ma'noda davlat tomonidan tan olinadigan va tegishli qonun bilan muhofaza qilinadigan yangi echim demakdir.

Kashfiyot so'zi arabcha "kashf"  so'zidan olingan bo'lib, luғaviy ma'nosi oshkor qilmoq, zohir etmoq, pardani ko'tarmoq  kabilarni bildiradi. Kashfiyot deganda tabiatning ilgari ma'lum bo'lmagan xususiyatlari va qonuniyatlarini aniqlash tushuniladi.

*Ixtiro va kashfiyot tushunchalarini farqlashda ularning kelib chiqish ildiziga e'tibor qaratish joiz. Ixtironing ildizi sun'iy (inson tomonidan yaratilgan), kashfiyot ildizi esa tabiiy (tabiatning mavhum xususiyatlari).*

Innovastiya tushunchasi kashfiyot hamda ixtiro tushunchalari bilan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

- Ixtiro va kashfiyotlar asosan, fundamental darajada qilinadi, innovastiyalar esa doimo texnologik (amaliy) darajada amalga oshiriladi.
- Kashfiyot va ixtiro yakka shaxs-kashfiyotchi yoxud ixtirochi tomonidan qilinishi mumkin, innovastiya bo'lsa jamoa (laboratoriya, bo'limlar, institut) tomonidan ishlab chiqilib, Innovatsion loyiha ko'rinishini oladi.
- Kashfiyot foyda olishni bosh maqsad qilib qo'ymaydi. Innovastiya esa doimo texnika va texnologiyaga yangilik kirish orqali katta pul oqimiga ega bo'lish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish hamda tannarxni pasaytirish, shuningdek, boshqa e'tiborga molik foyda olishni ko'zlaydi.
- Kashfiyot tasodifan yuz berishi mumkin, innovastiya esa doimo izlanishlar natijasi hisoblanadi. U belgilangan aniq maqsad va texnik-iqtisodiy asoslashni talab etadi.

“Innovastiya” atamasini iqtisodiy kategoriya sifatida fanga XX asrning birinchi o’n yilligida avstriyalik olim Yozef Aloiz Shumpeter (1883-1950) kiritgan bo’lib, o’zining “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida (1911) ilk marta rivojlanishdagi o’zgarishlarning yangi kombinastiyalari masalalarini (ya’ni innovastiya masalalari) ko’rib chiqib, Innovatsion jarayonga to’liq ta’rif berib o’tgan.

Y.Shumpeter rivojlanishda 5 o’zgarishlarni belgiladi:1) Yangi texnika, texnologik jarayonlardan yoki ishlab chiqarishning yangi bozor ta’minotidan foydalanish;2) Yangi xususiyatli mahsulotlarni joriy etish;3) Yangi xomashyodan foydalanish;4) Ishlab chiqarishni tashkil etish va uning moddiy texnik ta’minotidagi o’zgarishlar;5) Yangi sotuv bozorlarining paydo bo’lishi.

Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotda innovastiyalarning ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda. Buning asosiy sababi innovastiyalarning bozor sharoitlarida kuchli raqobat quroli ekanligidir, chunki innovastiyalar tannarxning pasayishi, foydaning o’sishi, yangi ehtiyojlarning yaratilishi, qo’shimcha pul oqimi, yangi mahsulot ishlab chiqaruvchi imidjining (mavqe) rivojlanishi, yangi bozorlarni, shu jumladan tashqi bozorlarni ochish va egallashga imkon beradi.

Bugungi kunda texnologik innovastiyalar tavsifi 1992 yilda Oslo shahrida qabul qilingan (Oslo yo’riqnomasi) xalqaro standartlarga asoslanadi. Ushbu standartlar yangi mahsulot va yangi jarayonlar, shuningdek, ularning sezilarli texnologik o’zgarishlarini qamrab oladi. Bundan kelib chiqib, texnologik innovastiyalarning ikki turi qabul qilingan:

- Mahsulot innovastiyalari;
- Jarayon innovastiyalari.

Mahsulot innovastiyalari yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarni joriy etishni qamrab oladi. Shuning uchun mahsulot innovastiyalarining ikki ko’rinishi mavjud:

- Bazis mahsulot innovastiyalari;
- Takomillashtirilgan mahsulot innovastiyalari.

Jarayon innovastiyalari mahsulotni ishlab chiqarishning yangi shakl va metodlarini o’zlashtirishni bildiradi.




## 1.4. Innovatsiyalarning asosiy funktsiyalari

Innovastiya yangi mahsulot yoki jarayonga kapital qo'yish orqali olingan va bozorda realizastiya etilgan natija hisoblanadi. Sotuvga qo'yilgan innovastiya realizastiyasida "pul-innovastiya" almashinuvi yuz beradi. Ushbu almashinuv natijasida tadbirkor (produstent, investor-sotuvchi) tomonidan qo'lga kiritilgan pul mablaғlari, birinchidan, innovastiyalarni yaratish va sotish xarajatlarini qoplaydi, ikkinchidan, innovastiyalar realizastiyasidan foyda keltiradi, uchinchidan, yangi innovastiyalarni yaratishga stimul vazifasini bajaradi, to'rtinchidan, yangi Innovatsion jarayonni moliyalashtirish manbasi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, innovastiya quyidagi uch funkstiyani bajaradi (1.4-rasm):

1.**Qayta ishlab chiqarish funkstiyasi** innovastiya kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning muhim moliyaviy manbai ekanligini bildiradi. Bozorda innovastiya sotuvidan kelgan pul tushumi tadbirkor foydasini yaratadi, u esa moliyaviy resurslar manbasi hamda Innovatsion jarayonning samaradorligi mezoni hisoblanadi. Tadbirkorlik foydasi ishlab chiqarish-savdo, investistion, Innovatsion va moliyaviy faoliyat ko'lamlarini kengaytirishga yo'naltirilishi mumkin. Shunday qilib,

innovastiyadan foyda ko'rish va uni moliyaviy resurs manbai sifatida ishlatish innovastiyalarning qayta ishlab chiqarish funkstiyasi mazmunini aks ettiradi.

2.Innovastiyalar realizastiyasi hisobidan olingan foyda turli yo'nalishlarda, shu jumladan, kapital sifatida ishlatilishi mumkin. Kapital mohiyatan foyda olish maqsadlari uchun sarflanadigan pul mablaғlarini bildiradi. Mazkur kapital barcha **investistiyalar** hamda aniq yangi innovastiya turlarini moliyalashtirishga yo'naltirilishi mumkin.

3.Innovastiya realizastiyasi hisobidan tadbirkorning foyda olishi har bir tadbirkorlik sub'ektining maqsadli funkstiyasiga bevosita mos keladi. Ushbu moslik tadbirkorning yangi innovastiyalar qilishiga **stimul** bo'lib xizmat qiladi; uning doimiy ravishda talabni o'rganish, marketing faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish, moliyaviy boshqaruvning yangi zamonaviy priyomlarini qo'llashiga turtki beradi. Yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi innovastiyalarning stimullovchi funkstiyasi mazmunini beradi.

## 1.2.INNOVATSIYA FAOLIYATI VA TEXNOLOGIYALAR TRANSFERI ASOSLARI

### 1.2.1 INNOVASTIYA FAOLIYATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlanganidek: "...Xozirgi keskin raqobat sharoitida Innovatsion texnologiyalar va imlm-fanni ... yanada rivojlantirish uchun zarur shart sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bugun zamonning o'zi ushbu masalani siyosatimizni eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda" .

Innovatsion faoliyat qonunchiligi tizimi uch bosqichdan iborat:

1 bosqich: Umumiy fuqarolik qonunchiligi.Unga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksinining ikki qismi va umumiy fuqarolik qonunchiligiga tegishli O'zbekiston Respublikasi bir qator qonunlari kiradi.

2 bosqich: Maxsus Innovatsion qonunchiligi. Faqat innovatsion munosabatlarni va Innovatsion faoliyatini tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasi qonunlari taalluqlidir.

3 bosqich: Qonun osti xujjatlar va vazirliklarni va idoralarni meyoriy jujjatlari. Innovatsion faoliyatini tartibga soladigan O'zbekiston Respublikasi vazirliklarni va idoralarni qarorlari, yo'riqnomalari, qoidalari, farmoyishlari va tavsiyalaridan iborat.

Intellektual mulk ob'ektlari bilan foydalanishni tartibga soladigan asosiy qonunchilik hujjatlarni ro'yxatiga qo'yidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi
- "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'frisida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni
- "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'frisida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni
- "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'frisida " O'zbekiston Respublikasining Qonuni
- "Selekstiya yutuqlari to'frisida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni
- "Integral mikrosxemalar topologiyalarining huquqiy muhofazasi to'frisida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni
- "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'frisida"
- "Innovatsion loyixalar va texologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rafbatlantirish borasidagi qushimcha chora-tadbirlar tufrisida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

Intellektual mulkning ikki shakli mavjud:

1.Sanoat mulki :

- ixtirolar;
- foydali modellar;
- sanoat namunalari;
- Tovar belgilari;
- tovar kelib chiqqan joy nomlari.

2. Mualliflik huquqi**:**

- fan, adabiyot va san'at asarlari**;**

- ijrolar, fonogrammalar, efir yoki kabel orqali ko'rsatuv yoxud eshittirish beruvchi tashkilotlarning ko'rsatuvlari yoki eshittirishlari;
- EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari.

Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi.Ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquq patent berilgan taqdirdagina muhofaza qilinadi. Mualliflik huquqi qo'yidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Mualliflik huquqi ifoda shakliga nisbatan tatbiq etiladi
- Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi
- Fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi uni yaratish fakti bo'yicha yuzaga keladi.

Innovastiya faoliyati o'ziga quyidagilarni qamrab oladi:

- tadqiqotlar va ishlanmalar (ITTKI);
- Innovatsion faolligini boshqa turlari.
- ITTKI o'z navbatida quyidagilardan iborat:
- yangi bilimlarni egallash uchun fundamental va amaliy tadqiqotlar va aniq ixtirolarga yoki amaldagi texnik usullarni takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar;
- yangi mahsulotlar yoki jarayonlar konstepstiyasini yoki ularni yaroqlilik va yashash qobiliyatini xilma-xil yangi baholash usullarini ishlab chiqish.

Innovatsion faolligini boshqa turlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- mahsulotlarda, jarayonlarda, marketing va tashkillashtirish usullarida o'zgarishlarni yangi konstepstiyasini qidiruvi;

- texnik ma'lumotni, nou-xau va malakali mehnatni xarid qilish; patentlangan ixtirolarga chegirmalar va listenziya to'lovlar; injiniring, loyiha va boshqa konsultastion xizmatlardan foydalanish;
- xodimlarni malakasini oshirish;
- boshqa sub'ektlar innovastiya faoliyatining natijasi biriktirilgan dastgohga, dasturiy ta'minotga yoki yarimfabrikatlarga mablafni sarflash;
- boshqarish tizimini va o'zining umumiy harakat faolligini takomillashtirish;
- yangi marketing va o'z mollarini va xizmatlarini sotish usullarini ishlab chiqish.

**Sanoat mulki** qo'yidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Ixtiro, foydali model va sanoat namunasiga bo'lgan huquq patent berilgan taqdirdagina muhofaza qilinadi.
- Ixtiro, foydali model, sanoat namunasiga nisbatan qo'yiladigan, patent olish huquqini vujudga keltiradigan talablar hamda patent idorasining bunday hujjat berish tartibi qonun bilan belgilab qo'yiladi.
- Patent egasidan boshqa shaxslar uning ruxsatisiz ixtiro, foydali model, sanoat namunasidan foydalanishga haqli emas.

Ixtiro istagan sohada patent talablariga mos keladigan texnik echim bo'lib uning ikki shakli mavjud:

- Mahsulotga tegishli ixtiro - xususan moslamaga, moddaga, mikroorganizmlarning shtammlariga, o'simliklar va hayvonlar hujayralarining turlariga tegishli ixtiro.
- Usulga tegishli ixtiro - moddiy ob'ekt ustida ashyoviy vositalar orqali harakatlar jarayoniga tegishli ixtiro. Uning patent talablari qo'yidagilardan iborat:

- yangilik;
- ixtirochilik darajasiga ega bo'lishi;
- sanoatda qo'llash mumkinligi.

**Foydali model** degandap talablariga mos keladigan moslamani amalga konstruktiv oshirilishi tushuniladi. Amaliyotbop qilib tayyorlangan ishlab chiqarish

vositalari va iste’mol buyumlari, shuningdek ularning tarkibiy qismlari foydali modellar jumlasiga kiradi. Uning patent talablari:

- yangilik;
- sanoatda qo’llash mumkinligi.

**Sanoat namunasi**. Sanoat namuna deb mahsulotni badiy bezatilishi yoki estetik tarkibiy qismi tushuniladi.Sanoat namuna shakl yoki yuza kabi bo’rtib turadigan qismlardan, yoki bir tekislikda joylashgan masalan, (takrorlanadigan) rasm, chiziq yoki rangli bezatish qismlardan tashkil topilishi mumkin.Uning patent talablari:

- yangilik;
- o’ziga xos bo’lish;
- sanoatda qo’llash mumkinligi.

**Shakl ko’rinishdagi sanoat namunasi :**



**1.5.Rasm.Bir tekislikda joylashgan sanoat namunasi .**



**1.6.Rasm.Tovar belgisi**.

**Innovastiyalarga asoslangan iqtisodiyot.**Mamlakatni iqtisodiy rivojlanishida quyidagi tuzilmaviy manbalarini ajratish mumkin: ishlab chiqarish omillari asosida rivojlanish; sarmoya mablaflari asosida rivojlanish; innovastiya faoliyati asosida rivojlanish. Har qaysi mamlakat barcha rivojlanish manbalarini baravar ishlatadi.

Yaqingacha O'zbekistonni raqobat ustunliklari to'frisida gapira turib ko'pincha arzon xom ashyo, energetika va odam resurslariga urfu berilar edi. Bular tashqi bozorda mollarni yuqori bo'lmagan narxi hisobiga yutish imkoniyatini berar edi. Biroq olimlar bu yo'l tepaga emas – pastga degan xulosaga kelishdi, modomiki bu holatda bizning mamlakatimiz bizdan kambafalroq va ishlab chiqarish omillari arzonroq mamlakatlar bilan raqobatlashishiga to'fri keladi. Ustivorlik mamlakatni ishlab chiqarish omillari va sarmoya mablaflari asosida rivojlanishga emas, balki *innovastiya faoliyati faolligini oshirish* asosida rivojlanishga berilishi lozim.

Kelajakda O'zbekistonni iqtisodiy saloxiyatini rivojlanishining asosiy omillaridan biri - iqtisodiyotni Innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishdir. Bu yo'nalishni asosiy maqsadi ishlab chiqarishni texnologik darajasini va raqobatdoshligini oshirish, Innovatsion mahsulotni ichki va tashqi bozorlariga chiqishini ta'minlash, ichki bozorda import mahsulot o'rnini egallash, eksportga moslangan iqtisodiyot tizimini yaratishdir.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida milliy Innovatsion tizimini yaratish nafaqat ilmiy-texnik sohanining muhim vazifasi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish vazifasi xamdir.

**Milliy Innovatsion tizim**. Milliy innovatsion tizim (MIT) bu xususiy va davlat institutlari va tashkilotlarining to'ri bo'lib ularning faoliyati va o'zaro xamkorligi yangi texnologiyalarni yaratish, o'zlashtirish, takomillashtirish va tarkatishga olib keladi. O'zbekistonda mavjud bo'lgan MIT hali ham shakllanish bosqichida (sxemaga qarang).




**1.7.Rasm.O'zbekistonni Milliy Innovatsion tizim sxemasi**

## 1.2.2.TEXNOLOGIYALAR TRANSFERI

### 1.2.2.1. Asosiy tushunchalar va atamalar

"***Innovastiya*** - bu yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot yoxud yangi yoki amaliy faoliyatda ishlatiladigan takomillashtirilgan texnologik jarayon ko'rinishida amalga oshirilgan ijodiy faoliyatning yakuniy natijasi".

"***Texnika*** – bu moddiy boyliklar yaratish uchun xizmat qiladigan mehnat, bilim va faoliyat vositalarining majmui".

"***Texnologiya*** – ilm-fan, texnika va jamiyat joriy rivojlanish darajasi bilan belgilangan mahsulotni (xizmat ko'rsatishni) nominal sifat va optimal xarajat bilan tayyorlashga, xizmat ko'rsatishga, ta'mirlashga va/yoki foydalanishga yo'naltirilgan tashkiliy choralar, amaliyotlar va usullar majmui".

"***Texnologiyalar transferi*** – bu tarmoq ichida, tarmoqlar orasida, hamda mamlakatlar orasida amaliy xususiyatga ega bo'lgan texnologik bilimlarni, va ishlab chiqarish jarayonlariga va usullariga tegishli tajribani va Innovatsion mahsulotlarni tarqalishi".

“***Texnologiyalarni tijoratlash*** – aniq texnologik ishlanishlardan daromad olishga yo’naltirilgan va asosan mahsulotni faol marketingi bo’yicha tadbirlarni qamrab oladigan faoliyat”.

### 1.2.2.2. Texnologiyalarni tijoratlash

Texnologiyalar tijoratlash bu ilmiy-texnik ishlanma to’frisidagi axborot va bilimdan va/yoki ishlanmani (texnologiyani) o’zidan tijorat amaliyotiga kiritib foyda (daromad) olishni ifodalaydi.

Texnologiyalarni tijoratlash texnologiya haqida axborotni ishlatishdan albatta foyda (daromad) olishni ko’zda tutadi. Ko’p holatlarda ushbu foyda (daromad) pul ko’rinishda ifodalanadi. Texnologiyalarni tijoratlash jarayonida texnologiya bilan foydalanishni qaysi sub’ekt amalga oshirishi birinchi darajali savol emasligini yodda tutish muhim, va shu bois ko’pincha texnologiyani tijoratlashni mazkur texnologiya muallifi o’zi harakat qiladi.

Texnologiyalarni tijoratlash odatda quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Intellektual mulkga huquqni berish (patentni yon berish yoki texnologiyani ishlatishga listenziyani sotish);
- buyurtma asosida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini (ITTKI) bajarish;
- kompyuter dasturlarini va ma’lumotlar bazalarini ishlab chiqish va sotish;
- ilmiy-texnik faoliyat natijalarini ishlatadigan kompaniyalarni tashkil etish, shu jumaladan qo’shma korxonalarni ham;
- ilmiy maqolalarni, monografiyalarni, o’quv qo’llanmalarni chop etish.

### 1.2.2.3. Texnologiyalar transferi

Texnologiyalar transferi ilmiy-texnik xizmat ko’rsatish, texnologik jarayonlarni tadbiq etish, mahsulotni chiqarish uchun ilmiy-texnik bilimlar va tajribalarni uzatishni anglatadi.

Texnologiyalar transferi tijorat va notijorat turlariga ajratilishi mumkin.

Texnologiyalar transferining tijorat turi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- texnologiyadan foydalanish uchun listenziyani sotish (listenziyalash);

- qo'shma (ichki va xalqaro) ishlab chiqarishni yaratish;
- kichik Innovatsion korxonalarni tashkil etish;
- joriy etadigan kompaniyalarni tashkil etish;
- maslahat, texnik va taxliliy xizmatlarni ko'rsatish;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarni (ITTKI) amalga oshirish, yoki texnologik ishlarni bajarish;
- boshqalar.

Texnologiyalar transferining notijorat turi quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- akademik almashuv;
- manfaatdor ishlanma mualliflari va manfaatdor tomonlar orasida uchrashuvlar o'tkazish;
- tajriba almashish bo'yicha dasturlarni yaratish;
- qo'shma t'alim va trening dasturlarini o'tkazish;
- buyurtma ishlarni va konsaltingni amalga oshirish;
- laboratoriyalar va qurilmalar ijarasi;
- ilmiy va texnologik parklarni yaratish;
- ijtimoiy tarmoqlar.




**1.8.Rasm. Texnologiyalar transferini asosiy bosqichlari**

Texnologiyalar transferi texnologiyani albatta sanoat maqsadida o'zlashtiruvchiga (restipientga) uzatishni nazarda tutadi, biroq transfer xar doim xam

texnologiya manbasi yoki uni restipienti tomonidan foyda (daromad) olishi bilan bofliq emas (ayniqsa ular ijtimoiy yoki ekologik texnologiyalar bo'lsa).

Texnologiyalar transferining asosiy bosqichlari 1-rasmda keltirilgan. Texnologiyalar transferi asl jarayoni fundamental tadqiqot bosqichida emas balki faqatgina amaliy tadqiqot boshlanishida ko'zga ko'rinadi. Bu bosqichda ilmiy-texnik axborotdan mutloq ilmiy maqsadda foydalanish o'rniga axborotdan tijorat maqsadida foydalanish keladi va bozor talabiga ega bo'lgan mol haqida tasavvur shakllanishi boshlanadi.

### 1.2.2.4. Texnologiyalar transferi asosiy ishtirokchilari va ularni vazifalari

Davlat Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarilishiga va transferiga qiziqadi. Davlat tomonidan Innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash quyidagilardan iborat:

- Innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi va rafbatlantiruvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish;
- Innovastiyalar to'frisida axborot bazasini shakllantirish;
- Istiqbolli ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish.

Texnologiya iste'molchiga etib borish uchun to'rtta tomon ishtiroki lozim: ishlab chiqaruvchi (mualif), vositachi (texnologiyalar transferi markazi – TTM), investor va tadbirkor. Texnologiyalar transferi asosiy ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik sxemasi quyidagi 2-rasmda keltirilgan.

Har qaysi texnologiyalar transferi ishtirokchisining o'ziga va faqat o'ziga tegishli vazifalari bor. Jaxon tajribasini ko'rsatishicha ishlanma muallifining vositachisiz ishlashi ko'p holatlarda muvaffaqiyatsizlikga olib kelishi mukarrar ekan.

Ishlanma muallifining (odam, odamlar guruxi, tashkilot) asosiy vazifasi foyalarni Innovatsion texnologiyalarga aylantirishdir.

TTM vazifalari – texnologik broker xizmatini ko'rsatish, innovastiyalarni himoyalash va bozorga kiritish bo'yicha huquqiy va maslaxat xizmatlarini ko'rsatish. O'zbekistonda TTM vazifalari Texnologiyalar transferi agentligi bajaradi (www.tta.uz).




**1.9.Rasm. Texnologiyalar transferi asosiy ishtirokchilarining o'zaro hamkorlik sxemasi**

**Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari:**

- Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish;
- Innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan, xorijiy Innovatsion texnologiyalarni mustaqil ekspertizadan o'tkazish, moslashtirish va mamlakatimiz amaliyotiga joriy etish;
- ilmiy-texnik ishlanmalarni tijorat sotuvi ob'ekti sifatida ishlab chiqarishga joriy etish loyihalarini tuzish va amalga oshirish;
- ilmiy-texnik ishlanmalar natijalarini tijoratlashtirish; sohasida xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni amalga oshirish;
- Milliy texnika va texnologiyalarni tashki bozorga olib chikishga ko'maklashish;
- Ilmiy-texnik mahsulotlarni joriy etish buyicha marketing tadqiqotlari olib borish;
- Ilmiy-texnik Innovatsion ishlanmalarni tadbiq qilish va tijoratlash sohasidagi mutaxasasilarni o'qitish va ularning malakasini oshirish;
- Innovatsion loyihalarni ishlab chikish va amalga oshirish bo'yicha konsalting xizmatlari ko'rsatish va boshqalar.

Tadbirkor – ishlab chiqaradigan mahsulotni yoki ko’rsatadigan xizmatni sifatini oshirishda va tannarxini pasayishida va ularni yangi istiqbolli turlarini o’zlashtirishda manfaatdor jismoniy yoki yuridik shaxs. Tadbirkor mahsulotni (xizmatni) yangi turini o’zlashtirish va chiqarish, hamda uni iste’molchiga etkazib berish bilan shufullanadi.




**1.10.Rasm. Miiliy Innovatsion tizimda TTA o’rni**

Investor - odam, odamlar guruxi, tashkilot - texnologiyalarni tijoratlash loyixalarini moliyalashtiradi. Texnologiyalar transferi byudjet, byudjettan tashqari fondlar, xalqaro fondlar va tashkilotlar, xorijiy va milliy investorlar, banklar va boshqa moliya tashkilotlari kredit mablaflaridan moliyalashtirilishi mumkin.Investor va tadbirkor bitta shaxs bo’lishi mumkin.

## 1.3. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING INNOVATSION FAOLIYATINING TAHLILI

Buxoro davlat universitetida ishlab chiqarish korxonalari bilan amalga oshirilayotgan innovatsion korporativ hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Bu faoliyat universitetda "Innovatsion ilm-ta'lim texnologiyalari markazi" tomonidan tashkil etib boshqariladi. BuxDU Innovatsion ilm-ta'lim texnologiyalari markazi (keyingi o'rinlarda – Markaz) o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi, Qonunlari hamda Oliy Majlisning Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi "Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g`risida"gi PQ-436 son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyundagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag`batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar tug`risida"gi PQ 916-sonli Qarori, VM Qarorlari va Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari va qarorlari,jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliginin 2010 yil 7 apreldagi "Ishlab chiqarish bilan innovatsion hamkorlikni yo'lga qo'yish"ga bag`ishlangan 3/2 Hay'at Qarori, O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy hujjatlari, Buxoro davlat universitetining Ustavi va ushbu Nizom asosida olib boradi. Uning tashkiliy tuzilmasi 1.15-rasmda ko'rsatilgan.

Markaz Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik Kengashining 2010 yil 30-apreldagi 4-sonli qarori va Evropa Komissiyasi Tempus dasturining 145171-TEMPUS-1-2008-1-ES-TEMPUS-SMHES sonli "PERSEUS - Jamiyat manfati uchun universitetlarga yo'naltirilgan Fan, Ta'lim va Ishlab chiqarish birlashmasini tashkil etish rejasi" loyihasi tavsiyalariga asosan universitet rektori vazifasini bajaruvchisining 2010 yil 19-maydagi 218- U sonli buyrug`i bilan universitet tarkibidagi markaz sifatida tashkil etilgan.




**1.11.Rasm. BuxDU Innovatsion ilm-ta'lim texnologiyalari markazining tashkiliy tuzilmasi**

**Markazning nomlanishi:**

- o’zbek tilida – Innovatsion ilm-ta’lim texnologiyalari markazi (IITTM);
- rus tilida – Stentr nauchno-uchebnoy innovatsionnoy texnologii (ЦNUIT);
- ingliz tilida –Research Development and Innovation Centre (REDIC).

Markaz universitetning II ukuv binosi 205 xonasi Fan bulimii, III o’quv binosi 218 xonada joylashgan, uning manzili: 200018, Buxoro shahri, M. Ikbol ko’chasi, 11-uy.

**Markazning maqsadi**.Markazning asosiy maqsadi universitetningning ilmiy potenstialini ishlab chiqarishning iqtisodiy va texnologik muammolarini echishga jalb etishdan iboratdir. Ishlab chiqarish korxonalarini daromadli va raqobatbardoshli faoliyat yuritishi uchun zarur bo’lgan informastion resurs bilan ta’minlash, strategik va taktik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan tezkor yangilanib turiladigan informastiya bilan ta’minlab turish, universitetda ta’lim va ilmiy faoliyat sifatini oshirishni, tadbirkorlik faoliyati ko’nikmalarini rivojlantirishni ta’minlovchi tizimni yaratish markaz faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

**Markaz vazifalari quyidagilardan iboratdir:**

1. Mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayonida universitet ta’lim va ilmiy tadqiqotlar tizimini ishlab chiqarish bilan integrastiyalash;

2. Innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishni va ishlab chiqarishga keng joriy qilishni tashkil etish;

3. Universitet ilmiy potenstialidan ishlab chiqarish muammolarini echishda, ishlab chiqarish mutaxassislarining tajribalaridan esa universitetda ta’lim-tarbiya va ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillash-tirishda foydalanish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish;

4. Ilmiy-tadqiqot ishlari, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarish o’rtasida hamkorlik uyushmalarini tashkil etish, shartnomalar tuzish va ikki tomonlama foyda olishni ta’minlash;

5. Hamkorlik uyushmalarida faoliyat olib borish uchun muntazam ravishda universitet professor-o’qituvchilari, doktorantlari, aspirantlari, magistratura va

bakalavriat talabalari, ishlab chiqarish mutaxassislari orasida ilmiy-amaliy potenstial monitoringini olib borish, doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertastiyalari, bitiruv malakaviy ishlari hamda kurs loyihalari va ishlari mavzularini ishlab chiqarish muammolari bilan bog`lashga erishish;

6. Hamkorlik uyushmalari vakillarining doimiy faoliyat olib boruvchi ilmiy-amaliy seminarini tashkil etish;

7. Ilmiy-amaliy va innovatsion tadqiqotlar, olingan natijalar monitoringini yuritish, tegishli ma'lumotlar bazalarini va veb saytlar yaratish;

8. Ilmiy-amaliy va innovatsion ishlanmalarni, ularni ishlab chiqarishga joriy qilishdan olingan natijalarni reklama qilish;

9. Universitet saloxiyaati haqida tasavvurni shakllantirish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;

10. Ishlab chiqarish ob'ektlarining marketing tadqiqotlarini o'tkazishda ko'maklashish;

11. Olingan natijalarning ichki nashriyotlarda chop etilishini tashkil etish;

12. Rivojlanish bo'yicha vositachilar va ichki vositachilar uchun tegishli materiallar tayyorlash va treninglar tashkil etish;

13. Bitiruvchilarni ishga joylashtirish sohasida imkoniyatlarni kengaytirish;

14. Innovatsion g`oyalar, texnologiyalar va ishlanmalar ko'rgazmasini tashkil etish va innovatsion yarmarkalarga qatnashishga ko'maklashish;

15. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalarining ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovastiya sohasidagi ilg`or tajribalarini muntazam ravishda o'rganib borish va universitetda joriy etilishini ta'minlash;

16. Markaz ushbu Nizomga ko'zda tutilmagan yo'nalishlarda faoliyat yuritishi uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda universitet Ustaviga asoslanadi.

BuxDU innovatsion faoliyatini amalga oshiradigan muhim tashkiliy tuzilma sifatida universitetda faoliyat ko'rsatayotgan innovatsion guruhlar hisoblanadi. Ularning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1.Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ (o'zaro manfaatli)

hamkorligining samarali mexanizmini ilmiy yo'lanish buyicha yo'lga qo'yish va kafedra darajasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning natijaviy samaradorligini yanada oshirish, professor-o'qituvchilar va mutaxassis-olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot faoliyati natijasida yaratilayotgan ilmiy-texnologik ishlanmalarning tegishli sohalarga operativ tatbig`ini ta'minlash Innovatsion guruhlarning asosiy maqsadi hisoblanadi.

2. Innovatsion guruhlar ilmiy yo'nalish, ilmiy maktabi hamda kafedra doirasida tashkil etiladi va ularning asosiy vazifasi BuxDUning "Oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligini tashkil etish bo'yicha namunaviy tadbirlar rejasi" asosida fakultet kafedralarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqishdan iborat.

3. Innovatsion guruhlar 5- 20 kishidan iborat bo'lib olimlar, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar,stajer-tadqiqotchi-izlanuvchilar,iqtidorli talabalar hamda ishlab chiqarish xodimlaridan tarkib topishi lozim.

4. Innovatsion guruhlar tomonidan kafedralar ixtisoslashuviga mos zamonaviy korxonalar to'g`risida ma'lumotlar banki hamda korxonalarda mavjud ilmiy-texnologik muammolarning yagona bazasi shakllantirish.

5.Kafedralarda innovatsion guruhlar tomonidan shakllantirilgan yagona axborot bazasi asosida bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik, nomzodlik va doktorlik dissertastiyalari mavzularini shakllantirish, korxona manfaatiga muvofiq xo'jalik shartnomalari asosida izlanishlar tashkil etish.

6. Ishlab chiqarish bilan innovatsion korporativ hamkorlikning joriy etilayotgan mexanizmining samarali tadbig`ini yo'lga qo'yish borasida universitetning o'quv va ilmiy ishlar bo'yicha prorektorlari, o'quv boshqarmasi va ilmiy bo'lim boshliqlari, Innovatsion ilm-ta'lim texnologiyalari markazi direktori, fakultet dekanlari hamda kafedra mudirlarining aniq mas'uliyatlari belgilanishini ta'minlash va ularning bu boradagi faoliyatlarining doimiy nazorati olib borish.

7.Fakultet kafedralarida innovatsion hamkorlik mexanizmining samarali tadbig`ini ta'minlash maqsadida Innovatsion ilm-ta'lim texnologiyalari markazi ko'maki bilan kafedralarning professor-o'qituvchilar uchun amaliy seminarlar o'tkazib turish.

BuxDUda bugungi kunda 15 ta innovatsion guruhlar mavjud,jumladan:

I. Umumiy fizika ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Mirzaev Shavkat Mustaqimovich – t.f.d. prof. fizika-matematika fakulteti dekani).

II. Agrokimyo va tuproqshunoslik ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Tursunov Xayrullo - q.x. f.n., dost.).

III. Umumiy kimyo ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Amonov Muxtor Raxmatovich – t.f.d. prof.).

IV. Tasviriy san'at va musiqa ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh(rahbari Sobirov Tolib – p.f.n.dost..).

V. Biologiya ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Rashidov Negmurod – b.f.n.dost.).

VI. O'zbek filologiyasi yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: O'raeva D– f.f.d.prof.).

VII. Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Navro'z-zoda B.R. – i.f.d. prof.).

VIII. Organik va fizkolloid kimyo ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Niyazxonov Tolib – k.f.n., dost..).

IX. Nazariy va qattiq jismlar fizikasi ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari:. D.R.Djuraev- prof.).

X. Pedagogika ilmiy yo'nalishi yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Adizov B.R. p.f.d.prof., kafedra mudiri,.).

XI.Psixologiya ilmiy yo'nalishi yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Barotov Sharif Ramazonovich – p.f.d.prof.) .

XII.Boshlang`ich ta'lim ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari:Qosimov F.M.– p.f.n.,dost.).

XIII. Tarix fanlar ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Hayitov Shodmon Ahmadovich t.f.d.prof.).

XIV. Geografiya ilmiy yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Toshov Xudoynazar g.f.n.dost.).

XV. Ingliz tilshunosligi yo'nalishi bo'yicha innovatsion guruh (rahbari: Rasulov Zubaydullo – f.f.n.).

BuxDU da innovatsion g`oya, ishlanma texnologiyalar va loyihalar borasida bajarilayotgan ishlar va xo'jalik shartnomalar to'g`risida 1.12 va 1.13-diagrammalarda ma'lumotlar keltirilgan.




**1.12.Rasm. 2009-2011 yillarda innovatsion g`oyalar va ishlanmalar Respublika yarmarkalarida BuxDU bo'yicha tuzilgan shartnomalar(ming so'mda)**

Buxoro Davlat universiteti Evropa Komissiyasini TEMPUS dasturining innovatsion yo'nalishi bo'yicha 2008 yildagi tanlov g`olibi bo'lgan. Loyiha nomi: "Jamiyat manfati uchun universitetlarga yo'naltirilgan Fan, Ta'lim va Ishlab chiqarish birlashmasini tashkil etish rejasi". Loyiha raqami: 145171-TEMPUS-1-2008-1-ES-TEMPUS-SMHES. Loyiha maqsadi: Markaziy Osiyoda «Amaliy tatqiqot va innovastiya markazlari» (Research development and Innovation centers(RD&I) tarmog`ini tashkil etish va ularning Evropalik hamkorlarning aniq takliflarga asosan ilm-fan taraqqiyotiga hissa qo'shishini ta'minlash.

Umumiy byudjeti: BuxDU uchun 27022 evro yoki 50 mln.so’m. Bajarish muddati: Yanvar 2009 y. - Dekabr 2011y. Hamkorlar: 37 universitetlar, jumladan:

Evropadan 6 ta universitet :Ispaniyaning Santiyago de Kompostela Universiteti(Evropali koordinator), Belgiyaning Brusel Vrije Universiteti (Evropali Ijrochi Boshqaruvchisi),Chexiyaning Masarik Universiteti,Finlandiyaning Laplandiya Universiteti, Litvaniyaning Vilnyus Universiteti, Germaniyaning Magdeburg Universiteti.




**1.13.Rasm. Universitetda 2009-2011 yillarda xo’jalik shartnomasi asosida bajarilayotgan ishlarning moliyaviy hajmi (ming so’mda)**

- ❖ Qazoqistondan 5 ta.
- ❖ Tojikistondan 8 ta.
- ❖ Qirg`izistondan 10 ta.
- ❖ O’zbekistondan 8 ta universitetlar, jumladan:

1.Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti;

2. Andijon Muhandislik Iqtisodiyot (hozirgi Avtomobilsozlik) instituti.

3.Samarqand Iqtisodiyot va Servisa instituti;

4.Urgench davlat universiteti;

5.Tashkentskiy davlat iqtisodiyot universiteti;

6.Karshi Muhandislik Iqtisodiyot instituti;

7. Buxoro davlat universiteti.BuxDU.Mahaliy universitet boshqaruvchisi, BuxDU iqtisodiy ta’lim va turizm kafedrasi professori  Navro’zzoda B.N.

Tempus dasturi PERSEUS loyihasining  ahamiyatdorligi qo’yidagilardan iborat:

- “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilishini rag`batlantirish to’g`risida qo’shimcha chora- tadbirlar” 2008 y. 15 iyuldagi 916-sonli O’zR Prezidentinining Qaroini amalga oshirishga qaratilgan.




**1.14.Rasm. Transmilliy ilmiy-tadqiqotlar ma`lumotlar bazasidagi muammolar bazasining Internet sahifasi**

OO’Yu olim va tadqiqotchilarning  ilmiy-tadqiqot natijalarini innovastiya darajasiga ko’tarishga hamda tijoratlashtirishga ko’maklashadi.

- Universitet olimlarini  Respublika innovatsion yarmarkaga faol qatnashishga chorlaydi.
- Transmilliy ilmiy-tadqiqotlar ma’lumotlar bazasini yaratib,loyiha doirasidagi 36 ta  universitetlar o’rtasida hamkorlikni rivojlantirishini ta’minlaydi.

- OO'Yuda ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi.

TEMPUS PERSEUS loyihasi doirasida 32 BuxDU olimlarining ilmiy-tadqiqotlar kartotekasi yaratildi va Transmilliy ilmiy-tadqiqotlar ma'lumotlar bazasiga kiritildi. Bu ma'lumotlar hozirgi vaqtda Internetda quyidagi manzilda mavjud: TEMPUS PERSEUS Database http://tempusdb.wiut.uz.

## 1.4.BUXORO DAVLAT UNIVERSITETIDA YARATILGAN INNOVATSIYALARNING TAVSILOTI

### 1.Suvli nasos-chuchutgich gelioqurilmasini yaratish

**Belgilangan maqsad.** Hozirda chuchuk suvga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda.Ma'lumki O'zbekiston sharoitida cho'l zonalarida Er osti suv zahiralari etarlicha bo'lib, uncha chuqurlikda bo'lmay, ular haddan tashqari dengiz suvlvridan ham achchiq va ko'p miqdorda menirallashganligi bilan ajralib turadi.Albatta bu suvlvrdan insoniyat va hayvonat dunyosi uchun foydalanish zarur. Maxsus qurilmalar yordamida er osti suvlarini tortib olish va chuchuklashtirishni zomonaviy usullardan foydalanib, elektir energiyasi etib bormagan, madaniyat markazlaridan uzoqda yashaydigan aholi punkitlarini chuchuk suv bilan ta'minlash.

Qurilmaning tavsifi: Yaratilgan suvnasos-chuchutgich gelioqurilmasi modelini sxematik tuzilishi 1-rasmda keltirilgan. Qurilma asosan ikki qismdan iborat I va II qismlar, I-qism quyosh suvchuchutgich qismi va II-qismi suvnasos qismi.

**Asosiy tavsifi**: Yaratilgan quyosh qurilmasi 4-5m chuqurlikdagi quduqdan menirallashgan suvni yuuqoriga ko'tarib 1m2 shaffof yuzadan 2,4 l distillangan suv olish imkonini beradi.

**Ishlanma bosqichi**: Rejalashtirilgan tadqiqotlar davrida suvlinasos-chuchutgich gelioqurilmasi asl nusxasi yaratildi. Uning ko'rsatgichlar diapazonini va optimal ish rejimi tanlash ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

**Hamkorlikda to'g`risida takliflar**: Ichimlik suvlari bilan ta'minlanmagan, elektr energiyasi etib bormagan joylarda, fermer ho'jaliklarida va aholi punktlarida foydalanish mumkin.

**Mualiflar**: t.f.d. Sh.M.Mirzaev., t.f.n.S.A.Boltaev., t.f.n.O.X.Uzokov., tadqiqotchi J..Abdullaev., B.Rajabov.

## 2.Mujassam quyosh mini meva – sabzavot quritgich – issiqxona qurilmasi

*Bitmas – tuganmas va ekologik*

*toza quyosh energiyasi har bir*

*xonadonda xizmat qilsin!*




**1.15.Rasm. Suvli nasos-chuchutgich gelioqurilmasi**

**Qo'llanish sohasi:** mini gelioqurilma uy sharoitida quyosh energiyasidan foydalanib butun mavsum davomida oilaga etarli miqdorda meva-sabzavotlarni tez va sifatli quritish xamda qish va erta bahorda ko'kat va ko'chatlar etishtirishga mo'ljallangan.

**Qurilmaning tavsifi**: Qurilma oldingi devori va usti tiniq shisha bilan qoplangan, uzunligi 1500 mm, eni 720 mm, old kismi 600 mm, orqa devorining balandligi 900 mm bulgan "issiq qutidan" iborat.

Qurilmaning xar ikkala tomonida shisha romli eshiklar va tabiiy ventilyastiyani ta'minlovchi to'rli darchalar mavjud. Qurilma kamerasida majburiy shamollatishni amalga oshirish uchun qurilmaning ostki qismida quvvati 4-5 Vatt bo'lgan quyosh batareyasi yordamida ishlovchi miniventilyator o'rnatilgan.

Qurilma kamerasida uch qator siljuvchan to'rli stellajlar o'rnatilgan bulib ularga quritiladigan qishloq xo'jalik mahsulotlari yoyiladi. Har bir qator stellajning yuzasi 1 $m^2$. ni (ikkita 0,5 $m^2$. dan) tashkil kiladi. Qurilma engil (20 kg atrofida) va ixcham bo'lib uni kuyosh nuri tushadigan ixtiyoriy joyda o'rnatish mumkin.

Quritiladigan mahsulot yuvib olingach stellajlarga joylashtiriladi, eshiklari va darchalar yopib kuyiladi. Quyosh nurlari shisha orkali qurilma kamerasiga kirib, uning kismlari va meva-sabzazvotlarda yutilib issiqlik energiyasiga aylanadi. Qurilma ichidagi harorat 50-55$^{o}$ dan orta boshlagach to'rli darcha ochib kuyiladi. Mahsulotlar qurigach stellajlardan olinib, qurilma keyingi ish rejimiga tayyorlanadi.




**1.16.Rasm.** Mujassamlashgan quyosh mini meva-sabzavot quritgich-issiqxona qurilmasining sxemasi

1 - shisha bilan qoplangan yog`och karkas; 2 - quritiladigan meva-sabzavotlar yoyilishi uchun to'r tagliklar; 3, 5 - tabiiy xavo almashinuvini ta'minlovchi darchalar; 4 - qurilmaning shishalangan eshigi; 6 – Quyosh batareyasi; 7 – ventilyator (quyosh batareyasiga ulangan)

Quyosh nuri tushadigan va yog`in - sochinsiz joyda o'rnatilgan bu qurilmadan qish va erta bahorda issiqxona sifatida foydalanish mumkin. Buning uchun stellajlar olib qo'yilib, uning ostidagi quttilarga hosildor tuproq solinadi va ko'chat hamda

ko'katlar etishtiriladi. Qurilmani zamonaviy materiallardan foydalangan holda yanada ixcham, engil va samarador kilib yasash mumkin.

**Asosiy ko'rsatkichlari:** Mahsulot turiga (o'rik, gilos, olma, anjir, pomidor, qovun , turli navli uzumlar va h.k.) qarab qurish jarayoni 2-6 kunni tashkil etadi, bu esa ochiq maydonda kuritilganidan 2-3 marta tezroqdir. Shu bilan birga maxsulotning sifati yukoridir. Qurilmaning xar bir metr kvadrat yuzasi hisobidan mahsulotning pishib etishi va mavsumiga bog`lik holda navbatma - navbat 25-30 kg o'rik, 10-15 kg gilos, 25-30 kg pomidor, 25 - 30 kg mayiz, 5-10 kg kovun va hokazolarni quruq holda tayyorlab olish mumkin. Qurilmada qish va erta bahorda 4-5 kg ovqatbop ko'katlar o'stirish yoki 1800-2000 dona ko'chat (pomidor, qalampir …) etishtirish imkoni mavjud.






**1.17.Rasm. Geliossiqxona qurilmasining ish jarayonidagi umumiy ko'rinishi**

"Quyosh mini meva – sabzavot quritgich issiqxonasi" sanoat namunasiga O'zbekiston Respublikasi Patent Idorasining 2009 yil 17 fevraldagi qarori bilan patent berilgan.

**Mualliflar**: E.T.Jo'raev, T.D.Jo'raev-t.f.n., dost.

## 3.Ko'chma quyosh suv chuchitgich qurilmasi

**Qo'llanish sohasi:** Qurilma quyosh energiyasidan foydalanib sho'r suvlarni chuchiltirib beradi. Toza suvga ehtiyoj yuqori bo'lgan sho'r suvli hududlarda muayyan sharoitlarga qarab qurilmaning ishlatilish joyi o'zgartirib turilishi mumkin.

**Qurilmaning tavsifi:** Qiya pog`onali quyosh suv chuchitish qurilmasi "issiq yashik" prinstipida ishlaydi. Qurilmaning asosiy qismini sho'r suv turuvchi bir qator pog`onachalarga ega bo'lgan va ustki qismi tiniq shisha bilan qoplangan, zanglamaydigan yumshoq po'latdan yasalgan protiven tashkil etadi (1,2-rasmlar). Protiven issiqlik izolyastiyasi va korpus vazifasini bajaruvchi taxtadan yasalgan quti ichida joylashtiriladi. Bunday quti o'rniga penomaterial qoplamadan ham foydalanish mumkin.

Qurilma sho'r suv kiruvchi va ortiqcha sho'r suv chiquvchi quvurchalar shuningdek hosil bo'lgan toza suv yig`ib olinadigan moslamalar bilan jihozlangan. Qurilma janubga qaratilgan holda uning sirtiga quyosh nurlari iloji boricha tik tushadigan qilib gorizontga nisbatan qiya ($30^{o}$-$35^{o}$) holda joylashtiriladi. Tiniq shisha orqali qurilmadagi suvga tushgan quyosh energiyasining asosiy qismi yutilib suvning temperaturasini oshiradi va intensiv bug`lanishiga sabab bo'ladi. Hosil bo'lgan bug`lar tiniq shishaning ostki qismida kondensastiyalanib toza suv sifatida qurilmadan chiqadi.

Ko'chma quyosh suv chuchitgich qurilmasining elementi 0,5 m2 foydali yuzaga ega bo'lib (uzunligi 1 m, eni 0,5 m va balandligi 10 sm), bunday elementlarni ko'paytirish va yordamchi qismlarni qo'llash tufayli unumdorligi kattaroq bo'lgan qurilmalarni yaratish mumkin (4 - rasm). Agar qurilmaning 1 m2 yuzasi hisobidan yozda har kuni o'rtacha 5 litr toza suv olinishiga asoslanadigan bo'lsak, 100 litr toza suv hosil qilib beruvchi qurilmaning foydali yuzasi 20 m2 bo'lishi va 40 dona elementdan tashkil topishi kerak.

**Asosiy ko'rsatkichlari:** Qurilma yilning aprel – noyabr oylarida sho'rlik darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar sho'r suvlarni chuchiltirish imkoniyatiga ega. Qurilmaning alohida elementining yuzasi 0,5 kv.m (uzunligi 1 m, eni 0,5 m va

balandligi 0,1 m). Qurilma har bir kv. m. yuzasi hisobidan kuniga o'rtacha 5 litr distill suv ishlab chiqaradi. Qurilmani elementlarni ko'paytirish hisobiga istalgancha yuzali qilib tayyorlash va istalgan joyda o'rnanish mumkin. Qurilma toza ichimlik suvi mavjud bo'lmagan olis aholi punktlarida va cho'l hududlarida samarador hisoblanadi.

**Ishlanma holati:** Qurilmaning tajribaviy namunalari sinovdan o'tkazilgan.




**1.18.Rasm. Ko'chma quyosh suv chuchitgich qurilmasi**

**Hamkorlik bo'yicha tavsiyalar:** Buyurtmalarga asosan tatqiqotlar o'tkazish, xo'jalik shartnomalari tuzish, qurilmani takomillashtirish va ko'paytirish bo'yicha hamkorlik.

**Mualliflar:** t.f.n. dost. T.D. Jo'raev, t.f.n. dost. R.A. Axtamov, t.f.n. J.S. Ahatov.

## 4. Internet tarmog`idagi tadbirkorlik sub'ektlarining veb-saytlari sifatini baholashning "2QCV2Q" modeli

**Ishlanmaning mazmuni :** "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili"da internet tarmog`ida amal qilinayotgan tadbirkorlik sub'ektlarining veb-saytlari sifatini xalqaro talablar nuqtai nazaridan baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Stisteron tomonidan yaratilgan "ritorika funkstiyalari va kommunikastiya normalari"ga asoslangan "2QCV2Q" modeli asosida bunday ishni amalga oshirish mumkin.

**Asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari:** "2QCV2Q" model oltita quyidagi baholash mezonlariga asoslanadi:

1.Veb-saytning *tashqi ko'rinishi*;

2.Veb-saytning *mazmuni*;

**1-Jadval.Veb-saytlarni tahlil qilish va baholashning "2QCV2Q" modelining ritorik tuzilishi**

| Modelning qisqacha nomi | Savollarning bosh harflari | Savollar lotin tilida | Savollar o'zbek tilida |
|---|---|---|---|
| 2 | Boshidagi birinchi Q | Quis? | Kim? |
| Q | Boshidagi ikkinchi Q | Quid? | Nima? |
| C | C | Cur? | Nima uchun? |
| V | V | Vbi? | Qaer? |
| 2 | Oxiridagi birinchi Q | Quando? | Qachon? |
| Q | Oxiridagi ikkinchi Q | Quamodo? | Qanday? |

3.Veb-saytdagi *xizmatlarning ko'lami*;

4.Veb-saytning *aloqa o'rnatuvchanlik qobiliyati*;

5.Veb-saytning *boshqaruvchanligi*;

6.Veb-saytning *qo'llaniluvchanligi*.

- Har bir mezon o'z navbatida bir nechta baholash ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi.
- Ko'rsatkichlarning muhimlik darajasi 0,1-0,5 chegarasida o'zgaradi.
- Maskur model bo'yicha maxsimal baholash balli 24,8 ga teng.
- Yuqoridagi mezon va ko'rsatkichlar asosida veb-saytlarning sifati "2QCV2Q" modelining maksimal balliga nisbatan qo'yidagi besh darajalarda aniqlanadi:

- 0-juda yomon (maksimal ballning 40% gacha);
- 1-yomon (maksimal ballning 41% dan 55% gacha);
- 2-qoniqarli (maksimal ballning 56% dan 70% gacha);
- 3-yaxshi (maksimal ballning 71% dan 85% gacha);
- 4-oliyjanob (maksimal ballning 86% dan 100%).

**Kutilayotgan natijalar**:

1.Internetda amal qilinayotgan veb-saytning xalqaro talablar nuqtai nazaridan sifatini baholash imkoniyati .

2. Biznes sub'ektlarning amaldagi veb-saytini o'xshash sub'ektlar veb-sayti bilan qiyoslash .

3. Firmalarning veb-sayti sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tavsiya etish.

**Qo'llash sohalari :** Internet tarmog`ida veb-sayti mavjud bo'lgan barcha tashkilot, korxona, muassasa va biznes sub'ektlarida qo'llash mumkin.

**Modelning yangiligi.** Modelning yangiligi virtual sharoitida veb-saytlarni sifat jihatdan baholash mumkinligi va bu jarayonda ilg`or xorijiy tajribani inobatga olinganligidadir. Jumladan, Italiyalik olimalar Marianjela Frank va Luiza Mik tomonlaridan ishlab chiqilgan veb-saytlarni tahlil qilish va baholashning "2QCV2Q" modeli o'rganilgan: (Manba: L.Mich and M.Franch, "2QCV2Q: A model for web sites analysis and evaluation", Proc.Int.Conf. IRMA, Anchorage, Alaska, May 21-24, 2000, pp. 586-589)

**"2QCV2Q" modelining sinovdan o'tkazilishi:**

1.Veb saytni sifatini baholashga bag`ishlangan *3 rd ISET (International Symposium on Entrepreneurship in Tourism) 19-23.03.2007,* University of Lapland, Finland da doklad qilingan.

2. Xalqaro jurnalda maqola chop etilgan: «Navruzzoda B., Ibragimov N.The measures for improving virtual activity of incoming urban tourism in Uzbekistan. In: World Journal of Tourism Small Business Management.
Volume 1. Issue 3. 2007. World Research Organization. Isis Press. Cape Town. South Africa. P.43-49.

3.O'zbekistondagi xalqaro turfirmalarni veb saytlari sifatini tajribaviy baholangan.

**Tashkilot nomi**: va bog`lanish uchun rekvizitlar (, telefon, e-mail): Buxoro Davlat universiteti(BuxDU). Manzili: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11.

Tel.:(8365)2232314; +9989051190511. Faks: 8(365) 2231254 , Ep-mail: **bdu-m@mail.ru**; **bnzoda@mail.ru**

**1.19.Rasm. “2QCV2Q” modeli bo’yicha tahlil va baholash ob’ekti sifatidagi turfirma veb saytining bosh sahifasi**




**2-Jadval.O’zbekistondagi turoperatorlarning veb-saytlarini “2QCV2Q” usulida tahlil natijalari**

| Turfoperator | Veb-sayt manzili | To’plagan balli | % hisobida | Sifat bahosi |
|---|---|---|---|---|
| “Sitara Interneyshnl” | http://www.sitara.com/ | 16,65 | 67,1% | Qoniqarli |
| Advantur” | http://www.advantour.com/ | 18,35 | 74% | Yaxshi |
| Asl tur | http://www.asl.uz/ | 16,4 | 66% | Qoniqarli |
| Sogda tur | http://www.sogdatour.com/ | 16,3 | 65% | Qoniqarli |

## 5. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida sutni qayta ishlash va ekologik toza ozuqa ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasini rivojlantirish usullari

*"Ozuqaning sifatliligi – mahsulot sifatliligi garovi"*

**Vazifasi:**Hozirgi kunda Respublikamizda fermerchilik, xususan chorvachilik sohasini rivojlantirish, tannarxi arzon maxsulot (sut, go'sht) ishlab chiqarish va ishlab chiqargan mahsulotni fermer xo'jaligida qayta ishlab, bozorgir raqobatbardosh va arzon mahsulot ishlab chiqarish talab qilinadi, sutni qayta ishlab sarig`yog`, pishloq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarib, ishlab chiqarish chiqitlarida sutni qayta ishlashdan qolgan boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari (o't uni, xashaki lavlagi, xashaki sabzi, xashaki sholg`om, turneps va boshqalar) bilan aralashtirib ekologik toza chorva ozuqasi ishlab chiqarish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

**Ta'rifi:** Sutni qayta ishlashni yangi texnologiyalari hamda chiqindilaridan q/x o'simlik uni va ildizmevali ozuqalar aralashmasidan ekologik toza chorva ozuqasi ishlab chiqish uchun qurilma va jixozlar hamda ularning sanitariya va zoogigienik holatini ta'minlash uchun bino va zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish 15 mln so'm zarur bo'ladi.

Sut ishlab chiqarish fermasi yaqinida sanitariya va gigiena talablariga javob beradigan bino ajratish (qurish) ko'zda tutilgan.

**Asosiy xarakteristikalari:** Fermer xo'jaligi sharoitida mazkur texnologiyasi ko'llanishi quyidagi ijobiy natijani olib keladi:

1) Fermer xo'jaligida sifatli tannarxi arzon mahsulot etishtirishga;
2) Etishtirilgan sutni fermer xo'jaligi sharoitiga tayyor mahsulot holiga keltirishga;
3) Qo'shimcha 4-ta ishchi o'rni yaratishga;
4) Qo'shimcha xarajatlarning keskin kamayishiga (50%).
5) Arzon ekologik toza ozuqa bazasini yaratishga;
6) Xo'jalikda iqtisodiy samaradorlikni va rentabellikni keskin oshishiga olib keladi.

**Usulni yaratish boskichlari**: Sutni qayta ishlab pishloq tayyorlash texnologiyasi va uni fermer xo'jaligi sharoitida tadbiq etilishi, to'g`risidagi dalolatnoma. Ispaniya

Santyago de Kompostella universiteti sutchilik laboratoriyasi -2009 yil; Sutni qayta ishlash natijasida chiqqan sut zardobidan qishloq xo'jalik (sabzavotchilik) mahsulotlari qo'shib ekologik toza ozuqa bazasi yaratish omillari dalolatnomasi. Ispaniya, Santyago de Kompostella universiteti chorva mollarni oziklantirish laboratoriyasi; Chorvachilik va chorva mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi (uslubiy qo'llanma). BuxDU-2008 yil; Em-xashak etishtirish texnologiyasi (uslubiy qo'llanma). BuxDU-2008 yil; Ekologik toza sut-tanga davo. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro-2005 yil; Buxoro vohasi tuproq-iqlim sharoitida fermer xo'jaliklarida oziqabob o'tlarning urug`ini etishtirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Samarqand-2006 yil.

**Hamkorlik bo'yicha takliflar:** O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyurtmasi yoki Buxoro viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomasi asosida ilmiy tadqiqot ishlarini davom qilish mumkin.

**Ishlanma mualliflari:** Tursunov X. q.x.f.n., Umarov K. q.x.f.n., dost., Yunusov R. Q.x.f.n., dost., Ikromova M.L. b.f.n., dost., Sharipov O. o'qituvchi.

# I I. BOB. “INNOVATSION MENEJMENTNING MOHIYATI” MAVZUSINI O`QITISH TEXNOLIGIYALARI

## 2.1. “INNOVATSION MENEJMENTNING MOHIYATI” MAVZUSINI O`QITISHNING TEXNOLIGIK MODELI

| **Mavzu** | **INNOVATSION MENEJMENTNING MOHIYATI** |
|---|---|

### 1.1. Ma’ruzani o’qitish texnologiyasi

| | |
|---|---|
| O’quv soati: 2 soat. | Talabalar soni: 20 ta |
| *O’quv mashg`ulotining shakli* | Informastion ma’ruza |
| *O’quv mashg`ulotining rejasi* | 1. Innovatsion menejment fanining asosiy tushunchalari va atamalari.<br>2. Innovatsiya faoliyati va texnologiyalar transferi asoslari.<br>3. Buxoro davlat universitetini innovatsion faoliyatining tahlili. |
| *O’quv mashg`ulotining maqsadi* | Talabalarga bozor iqtisodiyot sharoitida innovatsion menejment fani bo`yicha nazariy bilimlarrni hosil qilish va ularni amaliyotda qo`llashga hamda dars berishga o`rganishdan iborat. |
